

**ODAM SAVDOSINI OLDINI Olish CHORALARI**

Nasritdinov Azizxon Anvarovich*

O'zR IIV Akademiyasi o'qituvchisi

Nabijonov Farruhbek Ilhomjon o'g'li

Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi 3-o'quv kursi kursanti

Annotatsiya *Mazkur maqolada odam savdosining oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan. Unda bu jinoyatning kelib chiqish sabablari, uni bartaraf etishdagi muhim yo'nalishlar hamda davlat va xalqaro tashkilotlarning roli tahlil qilingan. Muallif odam savdosiga qarshi kurashda huquqiy ongni oshirish, ta'lim-tarbiyani kuchaytirish, axborot xavfsizligini ta'minlash va fuqarolik jamiyatining faol ishtirokini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi. Maqolada shuningdek, O'zbekiston Respublikasida bu yo'nalishda olib borilayotgan davlat siyosati va xalqaro hamkorlikning asosiy jihatlari ham ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *odam savdosi, oldini olish, huquqiy ong, profilaktika, axborot xavfsizligi, xalqaro hamkorlik.*

MEASURES TO PREVENT HUMAN TRAFFICKING

Annotation *This article highlights the measures being implemented to prevent human trafficking. It analyzes the causes of this crime, the main directions of prevention, and the roles of the state and international organizations in combating it. The author emphasizes the importance of raising legal awareness, strengthening education, ensuring information security, and enhancing the active participation of civil society in the prevention of human trafficking. The paper also outlines the key aspects of Uzbekistan's state policy and international cooperation in this area.*

* O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o'qituvchisi. azizxonnasritdinov1989@gmail.com



Keywords: *human trafficking, prevention, legal awareness, education, information security, international cooperation.*

Kirish

Odam savdosi — inson huquqlarini eng og‘ir darajada buzadigan va dunyo miqyosida xavfli muammolardan biri hisoblanadi. Bu jinoyat turli shakllarda namoyon bo‘lib, insonlarning majburan ishlatilishi, ekspluatatsiyasi, jinsiy qullik va boshqa ko‘plab zararli oqibatlariga olib keladi. Odam savdosini oldini olish va unga qarshi kurashish har bir jamiyat uchun dolzarb vazifa bo‘lib, uni hal qilish uchun samarali choralar ko‘rilishi zarur. Odam savdosini oldini olish choralari

1. Xabardorlikni oshirish:

odam savdosi haqida jamoatchilik, ayniqsa yoshlar va zaif qatlam vakillari o‘rtasida keng ma’lumot berish lozim. Bu borada davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari hamkorlikda ish olib borishi muhimdir. Maqsad – odam savdosi xavfi haqida odamlarni ogoh qilish va ularning o‘zini himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

2. Qonuniy bazani mustahkamlash:

Odam savdosiga qarshi samarali kurash uchun qonunlar kuchaytirilishi, jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va jazolash mexanizmlari takomillashtirilishi kerak. Qonunchilikka xalqaro standartlar asosida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega.

3. Moliyaviy va ijtimoiy yordam:

Odam savdosi qurbonlariga ijtimoiy, ruhiy va tibbiy yordam ko‘rsatish zarur. Ularni jamiyatga qayta integratsiyalash, kasb-hunar o‘rgatish va iqtisodiy mustaqillikka erishtirish muhim hisoblanadi. Bu, ayniqsa, ayollar va bolalar uchun juda muhimdir.

4. Chegara nazoratini kuchaytirish:

Odam savdosi ko‘pincha chet elga olib chiqish orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun chegara punktlarida nazorat kuchaytirilishi, migratsiya jarayonlari to‘liq va shaffof tashkil etilishi kerak. Bu yerda xavfsizlik xodimlari va



bojxonachilar maxsus tayyorgarlikdan o'tib, odam savdosini aniqlash usullarini bilishlari muhimdir.

5. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish:

Odam savdosi global muammo bo'lgani uchun mamlakatlar o'rtasida ma'lumot almashish, jinoyatchilarni qo'lga olish va ularni sudga tortish borasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Shuningdek, odam savdosiga qarshi kurashishda xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish muhim.

Jinoyat sodir etilishiga imkon bergan sabab va shart-sharoitlar ob'ektiv va muqarrar ravishda jinoyatning sodir etilishiga olib keladigan, huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar majmuidir¹

Milliy qonunchiligimizda, odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish masalalariga oid bir qator o'zgarishlar xalqaro huquqqa mos ravishda o'zgarmoqda. Xususan, 2019-2020 yillarda mazkur yo'nalishlardagi faoliyatni tartibga solish maqsadida 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Bundan tashqari, Xalqaro Mehnat Tashkiloti va Xalqaro migratsiya tashkilotining 6 ta Konventsiya hamda protokollari ratifikatsiya qilindi. Bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo'l qo'yilganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda Jinoyat kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Odam savdosi – deganda, kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish tushuniladi. Odamlardan foydalanish – boshqa shaxslarning fohishaligidan

¹ Nasritdinov Azizxon Anvarovich "Jinoyat sababi va uni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarning nazariy-huquqiy tahlili", JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, Volume-67_Issue-5_December-2024 <https://scientific-jl.org/index.php/new>



foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o'xshash odatlarni, erksiz holat yoxud inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishni anglatadi.² Dunyo miqyosida har yili 4,5 milliondan ziyod kishi odam savdosi qurboni bo'ladi. Achinarlisi, ularning 1,2 milliondan ziyodi bolalardir.³ Odam savdosi illati jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan XXI asrning jiddiy muammolardan biridir. Mehnat migratsiyasi hamda axborot almashinuvining kuchayishi odam savdosi bilan shug'ullanadigan jinoyatchi guruhlariga o'z qabih niyatlarini amalga oshirishga imkon yaratib bermoqda. Bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lgan odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish borasida yurtimizda ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu illat bilan kurashishda nafaqat davlat tashkilotlari, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda xalqaro tashkilotlar ham manzilli ishlarni amalga oshirmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining hisob-kitoblariga ko'ra, butun dunyoda 21 million kishi majburiy mehnatning jabrlanuvchilari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurash sohasida qo'ydagi xalqaro hujjatlarga qo'shilganligini sanab o'tishimiz mumkin BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1950 yil 21-martida qabul qilingan "Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risida"gi Konventsiya (O'zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatga 2003 yil 12-dekabrda qo'shilgan⁴. Jinoyat kodeksining 135-moddasida ko'rsatilgan jinoyat formal tarkibli jinoyatlarga taalluqli bo'lib, yollovchi bilan jabrlanuvchi o'rtasida og'zaki yoki yozma shakldagi bitim tuzilgan paytdan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi. Bunda aybdor shaxs faqat "yollash" bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi. Jinoyatning keyingi bosqichlari amalga oshirilishiga qarab aybdorlarni tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish uchun

² Дополнительная Конвенция об упразднении рабства, работорговли и институтов и обычаев, сходных с рабством. Принята Конференцией полномочных представителей, созванной в соответствии с резолюцией 608 (XXI) Экономического и Социального Совета от 30.04.1956 года и составлена в Женеве 7.09.1956 года. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/supplementconvention_slavery.shtml.

³ Юлдашев Ш. Н. Одам савдоси ва унга барчамиз биргаликда курашишимиз керак //ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 186-189.

⁴ Ахмедов А. Одам савдосининг олдини олиш ва унга қарши курашининг ҳуқуқий асослари //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 12 Special Issue. – С. 120-123.



va boshqa og'irlashtiruvchi holatlar bo'yicha javobgarlikka tortilishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida"gi 2008 yil 17-aprelъ Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining odam savdosi bilan bog'liq 135-moddasining yangi tahriri (o'zgartirilgan va aynan odam savdosi jinoyatini kvalifikatsiya qilish uchun moslashtirilgan) asosida amalga oshirilmoqda. Yuqoridagilar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 5-noyabrdagi qarori bilan "Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo'yicha Respublika reabilitatsiya Markazi" tashkil etilganligini alohida ta'kidlash lozim. B.Aminqulovning fikricha, bu jinoyatning asosiy sababi ishsizlik, bilim yetishmasligi, ma'naviy qashshoqlik, ochko'zlik, dunyoga haddan tashqari hirs qo'yish va nafsiga qul bo'lish kabilardir. Bu salbiy hodisa global jarayon sifatida bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tmayapti. Afsuski, fuqarolarimiz ham odam savdosi qurbonlariga aylanib qolmoqda. Bularning barchasi davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan ushbu illatga qarshi qat'iy choralar ko'rishni, odam savdosiga jalb etilgan va undan jabr ko'rgan hamyurtlarimizni muhofaza etishni dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda. Odam savdosi qurbonlariga aylangan shaxslarni huquqiy himoyalash, ularni ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy-ruhiy jihatdan reabilitatsiya qilish davlatimizda jamiyatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.⁵ Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, mamlakatimizda odam savdosi jinoyatlariga qarshi kurash bo'yicha e'tiborli ishlar amalga oshirilayotganligini, ularning oldini olish va chek qo'yish bo'yicha chora-tadbirlar amalda qo'llanilayotganligini e'tirof etish maqsadga muvofiq. Sodir etilgan jinoyatni to'g'ri malakalashni ta'minlash– huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Jinoyatni malakalashda qonuniylik, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolati, odil sudlovni amalga oshirish printsiplari zaruriy shart bo'lib hisoblanadi.

Xulosa Odam savdosi inson huquqlari va jamiyat barqarorligi uchun jiddiy xavf tug'diradi. Uning oldini olish uchun keng qamrovli va muvofiqlashtirilgan

⁵ Аминкулов Б.И. Замонавий дунёда аср вабоси ва жамият ҳаётига таҳдид сифатида-одам савдоси //ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 16-18.



chora-tadbirlar zarur. Xalqaro hamkorlik, qonuniy islohotlar, aholi ongini oshirish va ijtimoiy yordam tizimlarini rivojlantirish odam savdosini kamaytirish va barham topish yo'lida muhim omillardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. Nasritdinov Azizxon Anvarovich “Jinoyat sababi va uni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarning nazariy-huquqiy tahlili”, JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, Volume–67_Issue-5_December-2024
<https://scientific-jl.org/index.php/new>
3. Дополнительная Конвенция об упразднении рабства, работорговли и институтов и обычаев, сходных с рабством. Принята Конференцией полномочных представителей, созванной в соответствии с резолюцией 608 (XXI) Экономического и Социального Совета от 30.04.1956 года и составлена в Женеве 7.09.1956 года.
https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/supplementconvention_slavery.shtml.
4. Юлдашев Ш. Н. Одам савдоси ва унга барчамиз биргаликда курашишимиз керак //ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – T. 3. – №. 2. – С. 186-189.
5. Ахмедов А. Одам савдосининг олдини олиш ва унга қарши курашишнинг ҳуқуқий асослари //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 12 Special Issue. – С. 120-123.
6. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT). Protocol to Prevent, Suppress and Punish Trafficking in Persons, especially Women and Children, supplementing the United Nations Convention against Transnational Organized Crime. New York, 2000. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO).
7. BMTning “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi” va unga qo'shimcha “Odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish va unga chek qo'yish to'g'risida”gi Protokol. – Nyu-York, 2000.



8. Karimova N. “Odam savdosiga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning o‘rni”
// Huquq va jamiyat jurnali, 2023.
9. BMTning “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi” va unga qo‘shimcha “Odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish va unga chek qo‘yish to‘g‘risida”gi Protokol. – Nyu-York, 2000.
10. Karimova N. “Odam savdosiga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning o‘rni”
// Huquq va jamiyat jurnali, 2023.
11. Ommaviy axborot vositalari va onlayn resurslar: BMT Odam Savdosi Bo‘yicha Maxsus Vakili saytiga (<https://www.unodc.org>) tashrif buyurish mumkin. ILO rasmiy sayti (<https://www.ilo.org>).